



OILANING JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O`RNI

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Amonova Dilnoza SHermat qizi

Ibrohimov Og'abek Maxmarajab o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar, oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga oid muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarni mukammal bajarishdagi jihatlari yoritilgan, shuningdek, oilada umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishning dolzarb masalalari, farzand tarbiyasiga doir tartib, odob- axloq qoidalarini sinovdan o'tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota-onaning faoliyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, madaniyat, ma'naviyat, oila, jamiyat, tarbiya, ta'lim, axloq, milliy qadriyat, nikoh, qonun, BMT Bosh Assambleyasi.

The role of the family in the development of society.

Annotation: *This article highlights the aspects of family relations, family pedagogy in the perfect performance of the priority tasks of the important state policy of the society regarding personal education, as well as the current issues of the formation of a universal worldview in the family, the father who tests and implements the rules of etiquette and manners in the upbringing of children. - mother's activity is analyzed.*

Key words: *personality, culture, spirituality, family, society, upbringing, education, morality, national value, marriage, UN General Assembly.*

Oila – muqaddas dargoh. U nikoh yoki qon-qarindoshlik munosabatlariga asoslanadigan jamiyatning kichik bo'g'inidir. Oilalar a'zolar soni bilan bir-biridan



farq qiladi. Oila odamlarni birgalikda yashash sharoitlari, yaqinlari uchun javobgarlik hissi, axloqiy va huquqiy normalar bilan birlashtiradi. Odatda oilaning asosini hurmat, muhabbat, ehtirom va o‘zaro kelishuv tashkil etadi. U jamiyatning har bir a‘zosi tug‘ilib o‘sadigan, shakllanadigan makon. Yaqin insonlarning bir-biriga ulashadigan samimiy his-tuyg‘ulari va munosabatlari, farzandlariga bo‘lgan muhabbati, faxri, o‘zaro ishonchi oilani o‘ziga xos va takrorlanmas birlik sifatida namoyon qiladi. Ota-bobolarimiz qadimdan oilani muqaddas bilib, uni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratib kelgan.¹ Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta‘minlaydigan, kelajak nasl qanday bo‘lib yetishishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o‘taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbayi. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi yalpi yig‘ilishida 1994-yildan boshlab 15-mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga kelishilganligining o‘zi ham bu masalani xalqaro miqyosda qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g‘amxo‘rliги oilalarning mustahkamligi hamda tinchligiga asos bo‘lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998-yil “Oila yili”, 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2016-yil “Sog‘lom ona va bola yili” deb e‘lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son qarori bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019-yildan boshlab har yili 15-mayda mamlakatimizda “Xalqaro oila kuni” nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa‘y-harakatlarning yaqqol namunasidir.²

¹ Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma‘naviyat”, 1998. – B. 53.

² . Shavkat Mirziyoyev – oila va baxt haqida. 25-iyul 2018. <https://www.gazeta.uz>



Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o`lib borishi, muayyan an`analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avlodnavlodga yetkazilib turilishidan manfaatdor bo`lgan. Buyuk rus psixologi A.N.Leont`ev avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o`rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo`lmaganida, taraqqiyotning o`zi ham mutloq bo`lmas edi, deb ta`kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo`lagi bo`lmish oilaning roli kattadir. Demak, oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tug`ilish orqali aholining ma`lum miqdorda muttasil o`lib borishi, odamlar o`rtasida migratsiya, ya`ni u yerdan bu yerga ko`chib turish yoki o`lim oqibatida kamayib boradigan miqdorini to`ldirish vazifasini bajaradi. Chunki ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat ham, odamlar ham manfaatdordir. Bundan tashqari, har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o`lmas merosi, avloddan avlodga o`tib boradigan an`analari bo`ladi. Fuqarolik holatlari, madaniy o`rinish, ma`naviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, san`atshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo). Umuman odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat o`rtasida o`ziga xos “bufer” – ko`prik rolini o`ynab kelmoqda. Zero, madaniy va ma`naviy qadriyatlarni saqlab, avloddan avlodga yetkazishda davlat va jamiyatdagi ta`lim muassasalari, madaniyat o`choqlarining ham muayyan roli bor, lekin ularda o`zgarishlar tez-tez ro`y bergani sababli, ularning avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab avaylashdagi roli oilachalik yuqori bo`lolmaydi. SHuning uchun davlat oilaning mustahkam va farovonligi, odamlarning unda tinchlik, xotirjamlikda yashashlaridan hamisha manfaatdor ekanligi sababli ham muayyan qonunlar va yuridik tizimni ushlab turadiki, ular orqali nafaqat nikohning o`zi, balki ota-ona va



farzandlar o`rtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtirib boradi. O`zbekistonda yosh oilalarga ko`rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug`ilishi va katta bo`lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o`z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma`naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Tahlil etiladigan bo`lsa, odamlar o`rtasida ro`y beradigan ko`plab munosabatlar orasida faqat oilaviy munosabatlarga davlat tomonidan shunchalik ardoqlanadi, masalan, sevgi-muhabbat, do`st-yoronlik, odamlar urtasidagi oldi-sotti, tadbirkorlik. mehnat munosabatlariga davlat deyarli aralashmaydi.

O`zbek oilasi, o`zbek xonadoni shunday qurilganki, unga dunyo xalqlari havasmand desak sira mubolag`a qilmagan bo`lamiz o`zbek oilasida farzand tarbiyasi o`ta muhim sanaladi. Tarbiya san`ati shunday shunday xususiyatlarga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba`zilarga esa juda oson tuyiladi. Bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik tanish bo`lsa, unga shunchalik oson bo`lib tuyiladi. Hamma tarbiya sabr toqatni talab qiladi. Ayrimlar buning uchun tug`ma qobiliyat va malaka, ya`ni ko`nikma kerak bo`ladi deb uylaydilar. Lekin juda kam qism bundan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qiladi. Jamiyat oilalarni qo`llab quvvatlash, muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy burchidir. Davlatning oilaga g`amxo`rligi qonun asosiga qurilgan bo`lib, avvalo u oila kodeksida belgilangan.

Bundan tashqari, oilani qo`llab quvvatlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati ko`plab hujjatlar qabul qilgan. Oilani muhofaza qilish qo`llab quvvatlashda ularni moddiy tomondan qo`llash, ularga moddiy yordam berish chora tadbirlarning ko`rilishi muhimdir. 2012yil mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" deb e`lon qilindi. Shu munosabat bilan oilani davlat tomonidan qo`llab quvvatlash yanada kengaydi. Oilani himoya qilish mexanizmi kuchaydi.



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki oilaning jamiyat oldidagi vazifalari deganda, uning avvalo oila a'zolarining muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda shu orqali davlat va jamiyatning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qilish qobiliyati tushuniladi. Masalan, ota ishlab chikarish korxonasida ertadan kechgacha mehnat qilar ekan, bu bilan u nafaqat o'zining yeb-ichish, dam olish, turli xaridlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan ehtiyojini qondiradi, balki oila a'zolarini, birinchi navbatda farzandlari, uy bekasi bo'lsa, turmush o'rtog'ining ehtiyojlarini, qolaversa, u yoki bu korxonadagi rentabellikning oshishi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishiga, shu orqali o'z Vatanida ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan bir qatorda oila ham tinch jamiyat ham tinch bo'ladi. Oila farovonligi jamiyatimiz uchun foyda bo'ladi. Oilaviy muammolarning bo'lmasligi jamiyatimizning yana bir pog'onaga o'sishiga zamin yaratadi.³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev – oila va baxt haqida. 25-iyul 2018. <https://www.gazeta.uz>
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – B. 53.
3. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab Al-Mufrad. 1-bob. Ota-onaga e'tibor haqida. – Toshkent. 2007. – B. 1.
4. Safarov O, Maxmudov M., Oila ma'naviyati. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2016. – B. 161.
5. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2008. – B. 44.
6. Musurmanova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2010. – B. 90.

³ Musurmanova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2010. – B. 90.